“ Amir Temurning jahon tariida tutgan o’rni va roli” mavzusini o’rganishda badiiy adabiyotlardan foydalanishda ilmiy-uslubiy yondashuv

Meyliyeva Saodat Ismatovna

O’zbekiston Respublikasi IIV Toshkent 2-sonli Akademik litseyi tarix fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tarix qonuniyatlari .mafkuralar o’rtasida kurash, Amir Temurning jahon taraqqiyotida tutgan o’rni va uning badiiy adabiyotlarda aks ettirilishiva uning pedagogik ahamiyati ko’rsatilgan .Bu mavzuni yorishda samarali metod va usullardan foydalanish tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Tarix qonuniyatlari, Mafkuralar,tarixiy muhit,umuminsoniy qadriyatlar,Klaster,debat darslari FSMU,brainstorming,keystadi,boomerang dramatizatsiya dars uslublari ,tarixiy dunyoqarash.

Epigraf

Biz kim mulki Turon Amiri Turkistonmiz,Biz kim millatlarning eng qadimi,eng ulug’I Turkning bosh bo’g’inidurmiz …. Amir Temur.

Insoniyat asrlar davomida bir necha bor xalqlarning buyuk ko’chish davrlarini o’z boshidan kechirgan…German qabilalarining buyuk ko’chishlari milodiy asr boshlarida yoki IV-V asrlarda Osiyoda Atilla boshchiligida xunn qabilalarining Osiyodan Yevropaga tomon buyuk ko’chishlari …. Yoki XV- XVI asrlarda buyuk geografik kashfiyotlar tufayli baxt-boylik izlab Yevropaliklarning G’arbda yangi dunyoni kashf etishlari…

Tarix –bu kishilik jamiyati taraqqiyotidir… Tarixning o’z qonuniyatlari bor…Xuddi egizaklar bir-biriga o’xshamaganidek har bir davlatning o’z takrorlanmas taraqqiyot yo’li bor,o’z g’oyaviy mafkurasi bor…Qaysiki sivilizatsiyaning yuqori cho’qqisida turgan xalq o’ziga nisbatan mafkurasi zaif xalqlarni bosib olsa o’z madaniyatini va mafkurasini bu xalqlarga ham majburiy singdirtiradi .Bunga Xristofor Kolumbning Amerikani kashf etishi tufayli Ispan va portugallarning Yangi qit’adagi sarguzashtlari,yoxud 1776-1783 yillarda Amerikaliklar bilan Buyuk Britaniya qirolligi o’rtasida kurashi, yoki 1861-1865 yillarda Amerikada Shimol bilan Janub o’rtasidagi kurashi misol bo’ladi .AQSH atigi 40-50 yil ichida eng so’nggi jahon sanoat inqilobi kashfiyotlarini o’rganib, o’zida qo’llab jahon iqtisodiyotida o’z o’rniga ega bo’ldi.Keling XV-XVI asrlarga Osiyoda Temuriylar davri ga qaytaylik….O’sha davrda vaziyat qanday edi…?Amir Temur shaxsining jahon tarix sahnasiga chiqishiga nima sabab bo’ldi….? Tarixiy vaziyat…mo’g’ullarga nisbatan nafrat….

Tarix g’ildiragini orqaga qaytaraylik,mo’g’ullar kim edi o’zi..qachon davlat sifatida shakllandi …?Jahon sivilizatsiyasining eng past bosqichida turgan mo’g’ullar XIII asr boshlarida,aniqrog’I 1206 yillarda Markaziy Osiyoda Onon daryosi bo’yida o’z ilk davlatlarini shakllantirdilar….Movarounnahr xalqlari 2000 yillik davlatchilik tarixiga ega edi bu davrda. Jahon sivilizatsion taraqqiyotiga Al-Farg’oniy, Al-Xorazmiy Abu Ali ibn Sino ,Beruniy. Imom Buxoriy.Burxoniddin Marg’iloniy singari buyuk shaxslarni yetkazib bergan bu xalqning 6 xil yozuvi bor edi…

Buyuk milliy shoirimiz Abdulla Oripov aytganidek;

”Amerika sehrli diyor,

Uxlar edi Kolumb ham hali

Dengiz ortin yoritdi ilk bor

Beruniyning aql –mash’ali

Kolumbda bor alamim manim

O’zbekiston-Vatanim manim…”

Movarounnahr-bu zamin Rum,yunon,Xitoy va Hindistonni bog’lab turuvchi Buyuk Ipak yo’lining ko’prigi, jahon sivilizatsion taraqqiyotining markazi edi,27 ta davlat Xorazmshohlar davlatini tan olib unga bo’ysunardi… Vaholanki bu davrda 1196-1270 yillarda butun Yevropa cherkov inkvizitsiyasi davrini,salib yurishlarini o’z boshidan kechirayotgan edi…

Biz mo’g’ul mafkurasidan nima oldik , hech narsa…Kuyib- kul bo’lgan asarlar,xarobaga aylangan mamlakat,ezilgan,xo’rlangan mazlum xalq qoldi…Qariyb 150 yil boshi egik holda taraqqiyotning eng past bosqichida turgan mo’gullarga soliq to’lab yashadi bu xalq…

Shu o’rinda tarixning yana bir qonuniyatiga qaytamiz… Tarix shaxslarni yaratadimi ,yoki shaxslar tarixni…. Mening fikrimcha :Tarix-shaxslarni yaratar ekan ...Osiyodan Sharqiy Yevropagacha bo’lgan hududni 150 yillik m,u o’g’ul zulmidan qutqarish uchun Amir Temur singari shaxs kerak edi ` o’ZBEKISTONNING 1-Prezidenti I.A.Karimov”Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q “ degan asarlarida “Bizning ajdodlarimiz,xalqimiz qadim-qadimdan o’troq yashagan,millatimizni iligio’troq madaniyat sharoitida qotgan.Xalqimizdagi iligi to’q,baquvvat degan tushuncha,men hatto qonuniyat degan bo’lardim,bejiz paydo bo’lmagan.O’zbek xalqining iligi to’q,baquvvat demoqchiman.Yana tilimizda “tagli-tugli”,”palagi toza”degan iboralar bor.Bu bir joyda muqim yashagan,o’z turmush tarziga,axloq-odob mezonlari,aqidalariga va tafakkur tarziga ega bo’lgan xonadonlarga nisbatatan aytiladi.Butun ommani ,bir necha yuz minglab,millionlabaholini birlashtirgan aqidalarga,mezon va qoidalarga ega bo’lgan xalqni yana qanday izohlash ,ta’riflash mumkin … “ .Men shunday buyuk xalqni farzandi bo’lganimdan ,Amir Temur singari buyuk yurtdoshim borligidan faxrlanaman …Amir Temurning buyukligi shundaki –u buyuk davlat arbobi bo’lsada o’zini amir deb atadi va chunki uning avlodi viloyat amiri edi,kamsuqumlikni qarang u bundan faxrlanardi…Uning jahon tarixiga qo’shgan hissasi shundaki: Birinchidan 1394-1395-yil Oltin o’rda xoni To’xtamishxonni yengib nafaqat Osiyoni,hatto Sharqiy Yevropagacha bo’lgan hududni 150 yillik mo’g’ul zulmidan qutqardi.Ma’nan zaif yovvoyi mafkuraga barham berdi… Mo’g’ul zulmidan ozod bo’lgan davlatlarda mustaqillik uchun ,ma’naviy taraqqiyot uchun yo’l ochildi.Shu o’rinda Amir Temur bu hududlarni o’ziga qo’shib olsa bo’lardi,uning mardligi shundaki Oltin o’rda o’rnida 5 ta mustaqil xonlik vujudga keldi…U buyuk ipak yo’lini tikladi ,bekatlar tashkil etdi,savdogarlar uchun keng imkoniyatlar ocghildi ,davlatlararo xalqaro munosabatlar yo’lga qo’yildi….Madaniyatlar almashinuvi yo’lga qo’yildi…

Ikkinchidan: Amir Temur islomiy adolatni tikladi.Uning muhrida rosti va rusti kuch adolatdadur deb yozilgan edi …Amir Temur aholining 12 toifasi bilan muloqot o’rnatdi…Moliya islohoti,harbiy islohot,pul islohoti o’tkazdi davlat obodonchiligi bilan shug’ullandi…. Temur tuzuklari asarida:”Mening bir bog’im borki Buxorodan Samarqandgachadur”- deb bekorga yozilmagan…

Uchinchidan Amir Temur 1402 yil Anqara jangi tufayli butun Yevropa davlatlarini Usmoniylar imperiyasi zulmidan,Turk zulmidan qutqarib qoldi… Shu o’rinda uning yana bir mardligi shundaki Usmoniylar imperiyasi hududini o’ziga qo’shib olsa bo’lardi ,yo’q u dushmanini mard deya sanab o’zi ham mardlik qildi .Usmoniylar imperiyasi taxtiga Boyazid Yeldirimning katta o’g’li Yusuf Chalabuiyni o’tqazdi Garb davlatlarini tinchiligi evaziga…

To’rtinchidan: Amir Temur va temuriylar davrida fan va madaniyat yuksaldi.Butun insoniyat XV-XVI asrlarda 2-Renessans davrini o’z boshidan kechirdi. Mirzo Ulug’bek Akademiyasida yuzlab olimlar faoliyat ko’rsatdi .1018 ta yulduzning koordinatalari joylashgan o’rni o’rganildi .Jahon astranomiya ,trigonometriya fani rivojlandi yuzlab madrasalar qurildi ,hatto Yeropada ham ilm –fanga e’tibor kuchaydi Shaharlar taraqqiy etdi,universitetlar paydo bo’ldi…Jahon ilm-faniga Mirzo Ulug;bek, Qozizoda Rumiy ,Jaloliddin Rumiy,Alisher Navoiy ,buyuk musavvir Kamoliddin Behzod,buyuk davlat arbobi shoirlar sultoni Z.M Bobirlar jahon sahnasiga kirib keldi va o’z asarlari bilan zabardast iz qoldirdilar….

Shu o’rinda Amir Temur va Temuriylar davlati haqida Yevropada 500 dan ortiq asarlar paydo bo’ldi.arab tillarida esa 900 dan ortiq asarlar yozilgan. Florensiyalik olim Perondinoning “Skifiyalik Tamerlanning ulug’vorligi “asari,1582 yil Sevilyada Ispaniya elchisi Klavixoning “Esdaliklar asari,ingliz dramaturgi Xristofor Morloning “Buyuk Temur sahna asari shular jumlasidandir Temur shaxsi asrlar davomida butun Yevropani hayratga solgan, unga atab Fransiya oltindan haykal yasattirib muzeylarda byusti qo’yilgan bolsa Germaniya saroylarida uning portretlari saroy bezagiga aylandi… 1968 yilda tarixchi olim I.Mo’minovning “Amir Temurning ‘O’rta Osiyo tarixida tutgan o’rni va roli” asari shular jumlasidandir Temur shaxsi asrlar davomida o’rganildi Ibn Arabshohning 1472 yilda Amit Temur haqida yozilgan “Ajoyib ul maqdur “ asari Gollandiyada Jakobus Golius tomonidan 1636 yil lotin tiliga tarjima qilindi.Fransuz Sharqshunosi Loui-Matheu langlesning 1787 yilda yozilgan”Temurning siyosiy qonunlari “ asarifransuz tiliga keyinchalik bu asar ingliz tiliga tarjima qilindi.

Shunisi diqqatga sazovorki Ikkinchi jahon urushi davrida 1941 yil Amir Temur qabrining ochilishi va rus arxeologi Gerasimov tomonidan o’rganilishi butun Yevropani to’lqinlantirdi. 1942 yil shu voqea ta’sirida fransuz yozuvchisi Marsel Brion tomonidan 1942 yili “Men kim jahongir Temur” yoki “Tamerlan” asari fransuz tilida nashr etildi.Asar Amir Temur nomidan shunaqangi soda ,ravon,xalqona tarzda chiroyli,yozilganki unda Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma “asaridan,”Temur Tuzuklar” va Ibn Arabshohning “Ajoyib ul maqdur” asarlaridan foydalanilgan.Butun dunyo aholisi Ikkinchi jahon urushi bilan ovora bo’lgan bir davrda Amir Temurga murojaat: Amir Temurning hayoti,uning davlatchilik yo’li ,harbiy strategiyasini o’ganish,bu jahon siyosiy jamoatchiligi tomonidan tan olishi,xalqimizga,tariximizga nisbatan hurmat va e’tibor demakdir…

Mustaqillik yillarida yurtimizda buyuk davlat arbobi Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan 1996 yil aprel oyida Samarqand shahrida xalqaro anjuman,1996 oktyabr oyida Fransiya Parij shahrida Amir Temurning 660 yilligiga bag’ishlab xalqaro anjuman o’tkazildi. Shahrisabz,Samarqand,Toshkent shaharlarida u kishiga haykal o’rnatild.Toshkent shahrining qoq markazida Amir Temur muzeyi ochildi.Shuningdek 2026 yil Amir Temurning 680 yilligi ham yubiyeyi ham yurtimizda keng miqyosda nishonlandi.

Yana meni eng hayratga slogan asarlardan biri xalqimizning sevimli yozuvchisi Nurali Qobulning 2018 yilda yozilgan “Qalb qasrining sultoni Amir Temur “ ya’ni Temuriylar “epopeyasidir….Asar ustida 25 yildan ortiq ish olib borilgan eng so’nngi dunyo kutubxonalarida saqlangan ma’lumotlar bilan to’ldirilgan Akademik va adabiy Nashrlarda 17 jildlik,ayrim manbalarda esa 25 jildli kitoblardan iborat deb ko’rsatilgan bu asarning 7 ta jildini o’qishga ulgurdim xolos va boshqa kitobxonlarga ham o’qishni tavsiya etardim…1.”Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich”Yetti iqlim sultoni yoxud ahd va taxt”,”Chingizxonning oltin taxti”, “Jahon mulkining sultoni yoxud fotih Temur va Boyazid Yeldirim”,”Tiriklik saodati” va h.k…

Umuman olganda tarix darslarida badiiy asarlardan foydalanish ,o’quvchilar bilan shu mavzularda debat darslari,FSMU,Bumerang darslari yoki Dars jarayonida ma’lumotlarni esda saqlash uchun

Bumerang,keys stadi,brainstorming dars metodlaridan foydalanish dramatizatsiya darslari tashkil etish darsning sifatini oshiradi. Oldindan o'quvchilarga tarixiy asarlarni ro'yxatini berish va darsdan tashqari vaqtlarda bahs,munozara ,debat darslari trashkil etish o'quvchilarda tarixiy dunyoqarashini kengaytiradi va tarixiy tafakkurini shakllantiradi.O'quvchilarning badiiy asarlarga nisbatan mehri oshadi ma'naviy dunyoqarashini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov "Amir Temur –faxrimiz,g'ururimiz " T-1997 yil O'Zbekiston nashr.
2. Mamayunusovna, P. I. (2021). BOBURNOMA. AS A HISTORICAL AND LITERARY SOURCE. Thematics Journal of Social Sciences, 7(5).
3. Пардаева, И. (2018). Анушервон адолат тимсоли. Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(2), 67.
4. Pardayeva, I. (2026). ALISHER NAVOIY IJODIDA ADOLAT KONSEPSIYASI VA UNING MA'NAVIY-IJTIMOIY MOHIYATI. ALISHER NAVOIY VA XXI ASR, 11.
5. Холова, М. (2015). МАСТЕРСТВО СОЗДАНИЯ ПОЭТИЧЕСКИХ СИМВОЛОВ В ЛИРИКЕ (НА ПРИМЕРЕ ПОЭЗИИ ФАХРИЁРА). In Современная филология: теория и практика (pp. 114-119).
6. Hotamovna, U. G., Abdusalamovna, K. M., & Mukhtarovna, K. D. (2021). NEW INTERPRETATION OF THE POETRY. International Journal of Management, 12(2).
7. Холова, М. (2019). Рауф парфи шеърлари бадийяти. Иностранная филология: язык, литература, образование, 4(1), 70.
8. Narzikulova, R. (2025). THE PRAGMATIC FUNCTIONS OF IRONY. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(1s), 267-271.
9. Narziqulova, R. About the Great English Writer George Orwell. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(4), 29-32.
10. Zafarovna, A. M., & Raxmiddinovna, O. M. (2024). The Use of Modern Educational Technologies in the Process of Teaching Foreign Languages. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 324-326.
11. Malika, A., & Shohjahon, I. B. M. (2025). PRACTICAL ANALYSIS OF TRADITIONAL AND MODERN METHODS. SHOKH LIBRARY, 1(13).
12. Murodbek, A. (2026). QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA URUSH VA TINCHLIK KONSEPTUAL TAHLILINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR, 2(7), 429-433.
13. Murodbek, A. (2026). THE PHILOSOPHICAL, SOCIOLOGICAL, AND CULTURAL ROOTS OF THE CONCEPTS OF "WAR" AND "PEACE". Shokh Articles Library, 1(1).
14. Furkatovna, N. D. (2025). ACCENT AND IDENTITY IN TRANSITION: A COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH VARIETIES. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 3(36), 11-13.
15. Furkatovna, N. D. (2025). COMMUNICATIVE NORMS IN ENGLISH PHONETICS: FROM STANDARD TO NON-STANDARD VARIETIES. AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING, 3(9), 10-15.